

ZAMONAVIY NEMIS TILIDA VAQT BILAN BOG'LANGAN HODISALARNI TUGASHINI IFODALASH VOSITALARI

Sapayeva Maxliyoxon Yususboy qizi
SamDChTI magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy nemis tilidagi vaqt bilan bog'langan hodisalarni tugashini ifodalaydigan lingvistik vositalar, ularning turlari, ifodalanishi va ma'no turlari kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Lingvistik vosita, sintetik xarakter, analitik xarakter, prefiksli fe'llar, finitiv vosita, turg'un birikma.

Taqdim etilgan maqolaning maqsadi zamonaviy nemis tilida vaqt bilan bog'langan hodisalarni to'xtatish (tugallanish) ma'nosini ifodalaydigan lingvistik vositalarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Nemis tilida bunday hodisalarni tugashini ifodalovchi vositalarni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin. Ular sintetik (morfologik) va analitik (sintantik) xarakterga ega bo'lishi mumkin. Sintetik ya'ni morfologik vositalar qatoriga birinchi navbatda prefiksli fe'llar kiradi. Analitik xarakterga ega, ya'ni sintaktik vositalarni fe'l (yoki yordamchi) bilan turli xil qurilmalar va turg'un birikmalar tashkil qiladi.

1. Morfologik vositalar ichida, birinchi navbatda, prefiksli yurish-harakat fe'llari ajralib turadi. Masalan:

ablaufen (muddati tugamoq), qochmoq, qochib ketmoq, o'tib ketmoq, auslaufen (oqib ketmoq), verfliegen (uchib ketmoq), verfließen (oqib ketmoq), vergehen (o'tib ketmoq), verlaufen (qochib ketmoq), verrinnen (qochib ketmoq), vorbeigehen (o'tib ketmoq), vorübergehen (o'tib ketmoq).

Umumlashtirilgan holda keltirilgan fe'llar ular bilan birikkan otlar ifodalovchi biron bir narsani "muddati tugadi" degan ma'noni anglatadi. Ushbu fe'llar bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita vaqtni anglatuvchi nomlar bilan qo'llanadi. Masalan:

die Uhr (soat), die Frist (muddat), das Trauerjahr (motam yili), die Amtszeit (vakolat muddati), Amtsperiode (vakolat muddati), der Urlaub (ta'til), die Haft (qamoq), der Vertrag (shartnoma), das Unternehmen (shirkat), der Pass (pasport), das Visum (viza), das Ultimatum (ultimatum), der Ausweis (hujjat) **läuft ab**;

der Mietvertrag (ijara shartnomasi), die Amtszeit des Präsidenten (prezidentning vakolat muddati) **läuft bald aus**;

die Zeit (vaqt), eine Stunde (soat) (im Nu), die Monate (oylar), Jahre (yillar) sind nur so (umg.) schnell **verflogen**;

vier Wochen (to'rt hafta), drei Monate (uch oy), die Stunden (soatlar), die Frist (oxirgi muddat), dieser Abend (bugun kechqurun), der Urlaub (ta'til) **waren** viel zu schnell **verflossen**;

die Zeit (vaqt) (so schnell), unsere Demonstration (bizning namoyishimiz) (ohne Zwischenfälle - hodisasiz), die Feier (bayram), der Abend (oqshom) (sehr harmonisch - juda uyg'un) **ist verlaufen**;

die Zeit, die Stunden, ein Jahr **verrinnt, war veronnen**;

die vier Wochen **werden** schnell **vorbeigehen**;

die Zeit, der Urlaub, das Fest **ging** schnell **vorüber**.

Bu fe'llar hodisa xarakteridagi ruhiy holatlarni, tabiat hodisalarini bildiruvchi nomlar bilan ham birikishi mumkin. Bunday hollarda, bu jarayonlar oqimining to'xtashi ta'kidlanadi (qarang: [Rizaev 2019, 46]), masalan:

a) Ruhiiy holatni to'xtatilishi:

die Geduld, der Humor, die Kraft, der Atem geht (nie) aus;

der Unmut, Zorn, Kopfschmerzen, Ärger, die Spannung, der Traum, die Begeisterung war verflogen;

die Liebe, seine Zuneigung zu ihr, Leidenschaften, die Schmerzen, das Lachen, der Scherz, Spaß, der Mut, die Müdigkeit sind inzwischen vergangen;

das Gefühl der Angst war veronnen; der Kummer, Schmerz ging rasch wieder vorbei; der Kummer, Schmerz ging rasch wieder vorbei;

b) Tabiiy hodisalarning to'xtatilishi:

das Gewitter, das Unwetter ging schnell vorüber; als der Regen, das Gewitter vorbeigegangen war, brachen sie auf.

2. Ko'rib chiqilayotgan vositalarning ikkinchi guruhi finitiv olmosh bog'lovchi (kopula) sein bilan birikmalari bilan ifodalanadi: **aus sein, vorbei sein, vorüber sein, um sein** (garang: [Rizaev, 2022]). Misollar:

aus sein: Zeit, Stunde, Monat ist aus;

vorbei sein: Es war Mitternacht vorbei (A.Seghers);

um sein: ... wenn die fünf Minuten um sind, pfeif ich meinen Pfiff (H.Fallada); Mein Dienst ist um (H.Müller); um sein birikmasi ma'lum bir muddat bilan chegaralangan davomiylik semasiga ega hodisalarning to'xtashini ifodalashga ixtisoslashgan.

3. Uchinchi guruh finitiv vositalariga aufhören fe'li va zu Ende sein turg'un birikmasi kabi larni kiritish mumkin. Vaqtning anglatuvchi hodisalarning to'xtalishi ma'nosini nemis tilining asosiy vositasi bo'lgan finitiv fe'li aufhören yordamida yetkazish mumkin. Ushbu fe'l subjekt(ega)ning ma'lum bir harakati yoki holati bilan "to'ldirilgan" vaqtning bildiruvchi nomlar bilan birikishi mumkin. Masalan:

Diese Nacht wird so leicht nicht aufhören (A.Seghers);

Damals hatte er auch nur einen Wunsch, daß dieser Augenblick nie aufhörte (F. Wolf).

Ko'rib chiqilayotgan hodisani nemis tilida zu Ende sein barqaror birikmasi yordamida ham ifodalash mumkin. U bilan birgalikda ikki turdagi nom paydo bo'lishi mumkin:

1) subyektning biron-bir harakati yoki holati bilan to'ldirilgan deb qabul qilinadigan vaqt ma`nosini bildiruvchi nomlar, masalan:

Die Besuchszeit war zu Ende (J.Becher); Die gute Zeit war zu Ende, das Glück war aus (J.Becher);

va 2) "bo'sh", hech qanday protsessual hodisa bilan bog'liq bo'lmagan nomlar:

... wenn es hell wird, ist die Nacht zu Ende (H.Bastian);

... als der Winter zu Ende war (A.Seghers);

Adabiyotlar

1. Ризаев Б Х. Аналитические средства семантического поля финитивности в современном немецком языке. Самарканд: СамГИИЯ, 2019. – 155 с.
2. Ризаев Б Х. Семантика конструкций с финитивными глаголами. Ташкент: «Янги аср авлоди» 2020.
3. Ризаев Б Х. Финитив семали турғун сўз бирикмалари. Самарканд: СамДЧТИ 2022.
4. Bastian H. Die Moral der Banditen. Berlin: Der Kinjderbuchverlag, 1971.
5. Becher J. Abschied. Moskau: Verlag für fremdsprachige Literatur, 1950.
6. Fallada H. Der eiserne Gustav. Berlin und Weimar: Aufbau -Verlag, 1977.
7. Müller H. Stücke. Berlin: Henschelverlag, 1975.
- a. Seghers A. Das Vertrauen. Berlin und Weimar: Aufbau-Verlag, 1975.
8. Wolf F. Menetekel oder die fliegenden Untertassen. Berlin: Aufbau-Verlag, 1973.